




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR



2024- yil 1- noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi



KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI


So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024- yil 1- noyabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari 21 228 tani tashkil etib, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 18 855 tani tashkil etdi.

Shuningdek, ushbu davrga 29 586 ta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,5 foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar soni to'g'risida umumiylumotlar

(1- noyabr holatiga)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

2024- yil yanvar-oktabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2 685 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 884 ta, xususiy korxonalar soni 400 ta va oilaviy korxonalar soni 321 tani tashkil etadi.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**




(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024- yil 1- noyabr holatiga 21 228 tani tashkil etdi, ulardan 18 855 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,8 foiz, sanoat – 13,3 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 10,8 foiz, qurilish – 5,8 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Navoiy shahrida – 23,3 foiz, Karmana tumanida – 14,9 foiz, Qiziltepa tumanida – 13,4 foiz va Xatirchi tumanida – 11,4 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2024- yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2 605 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 2 597 ta;
- yirik korxonalar 8 tani tashkil etdi.

Yillar kesimida soni

(birlikda)

2 605

2024

2023

3 287

3 584

2022

2021

4 416

3 778

2020

Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Navoiy sh.

620

Karmana t.

348

Qiziltepa t.

287

Navbahor t.

275

Konimex t.

258

Xatirchi t.

256

Zarafshon sh.

169

Nurota t.

121

Uchquduq t.

106

Tomdi t.


91

G‘ozg‘on sh.

74

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni



(birlikda)



(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- noyabr holatiga 18 950 tani tashkil etdi, ulardan 18 855 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 42,4 foiz, sanoat – 14,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 12,0 foiz, qurilish – 6,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,7 foiz, tashish va saqlash – 3,9 foiz, axborot va aloqa – 1,6 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,5 foiz, boshqa turlari – 10,6 foiz.


Yillar kesimida soni*(birlikda)***Hududlar kesimida soni***(birlikda)***Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni***(birlikda)*

(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

Mamlakat iqtisodiyoti “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 33,3 foiz, sanoat – 18,0 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 17,4 foiz, qurilish – 4,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 9,7 foiz, tashish va saqlash – 3,2 foiz, axborot va aloqa – 3,6 foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 1,4 foiz.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Navoiy sh.	614
Karmana t.	347
Qiziltepa t.	287
Navbahor t.	275
Konimex t.	258
Xatirchi t.	255
Zarafshon sh.	169
Nurota t.	121
Uchquduq t.	106
Tomdi t.	91
G‘ozg‘on sh.	74


**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Navoiy shahrida (22,8 foiz), Karmana (15,3 foiz), Qiziltepa (13,8 foiz), Xatirchi (11,2 foiz) va Navbahor (10,3 foiz), Zarafshon shahri (6,6 foiz), Nurota (6,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.



**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar**

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Konimex t.	370
Nurota t.	344
Karmana t.	317
Navbahor t.	304
Xatirchi t.	264
Qiziltepa t.	253
Tomdi t.	182
Navoiy sh.	181
Uchquduq t.	46
Zarafshon sh.	24
G'ozg'on sh.	16

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



(2024-yil 1- noyabr holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini jami korxona va tashkilotlarning 13,3 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 88,9 foizini ishlab chiqarish sanoati, 7,7 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 2,9 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,5 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Navoiy sh.	648
Karmana t.	458
Qiziltepa t.	295
Xatirchi t.	281
G'ozg'on sh.	234
Navbahor t.	228
Zarafshon sh.	212
Nurota t.	202
Uchquduq t.	122
Konimex t.	77
Tomdi t.	67

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



(2024-yil 1-noyabr holatiga)



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 50,6 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 33,6 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 15,8 foiz ulushni tashkil etdi;

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Navoiy sh.	388
Karmana t.	212
Qiziltepa t.	193
Navbahor t.	108
Zarafshon sh.	88
Nurota t.	82
Xatirchi t.	68
Konimex t.	32
Tomdi t.	26
Uchquduq t.	23
G'ozg'on sh.	14

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Bino va
inshootlar qurish



Fuqarolik
obyektlarini qurish



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari



(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,9 foizi yoki 8 017 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 71,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 20,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,8 foiz ulushni tashkil etdi

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Navoiy sh.	1 805
Qiziltepa t.	1 359
Karmana t.	1 199
Xatirchi t.	1 056
Navbahor t.	1 026
Zarafshon sh.	461
Nurota t.	344
Uchquduq t.	301
Konimex t.	214
Tomdi t.	153
G'ozg'on sh.	111

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



5 707

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

1 618

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

704

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2024- yil 1- noyabr holatiga 1 275 taga yetib, ularning 1 268 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 10,0 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 90,0 foiz ulushini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Navoiy sh.	281
Karmana t.	202
Zarafshon sh.	194
Xatirchi t.	156
Qiziltepa t.	147
Uchquduq t.	93
Navbahor t.	64
Nurota t.	57
Konimex t.	57
Tomdi t.	17
G'ozg'on sh.	7

Yillar kesimida soni (birlikda)



Oziq-ovqat va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar



(2024-yil 1- noyabr holatiga)

2024-yil 1-noyabr holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiylar sonining 73,3 foizini;


Axborot xizmatlari va noshirlilik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 23,5 foizini;

Ko'rsatuvalar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,2 foizni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Navoiy sh.	97
Karmana t.	54
Qiziltepa t.	39
Xatirchi t.	31
Zarafshon sh.	23
Navbahor t.	21
Uchquduq t.	16
Nurota t.	9
Konimex t.	8
G'ozg'on sh.	7
Tomdi t.	2

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Kompyuter dasturlashtirish,
maslahat berish va boshqa
yordamchi xizmatlar

112

113

Aloqa



Noshirlilik faoliyati

37

35

Axborot xizmati
ko'rsatish
sohasidagi faoliyati



Kino-videofilmlar, televizion
dasturlar, fonogrammalar va
musiqali yozuvlarni ishlab chiqish

7

3

Dasturlar yaratish bo'yicha
faoliyat va teleko'rsatuv
va radioeshittirish



(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 345 ta yoki 83,2 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 92,2 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,5 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 4,3 foizini tashkil etdi.


Hududlar kesimida soni

(birlikda)



Yillar kesimida soni

(birlikda)



Sog'liqni saqlash
sohasidagi
faoliyat



(2024- yil 1- noyabr holatiga)

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



Navoiy sh.	210
Karmana t.	176
Qiziltepa t.	149
Xatirchi t.	62
Navbahor t.	56
Zarafshon sh.	38
Uchquduq t.	18
Nurota t.	12
Tomdi t.	8
Konimex t.	4
G'ozg'on sh.	3

2024- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,5 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 81,4 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 15,5 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 3,1 foizni;

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy
shakli bo'yicha umumiylumot**

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quydagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarни tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Faoliyat ko'rsatayotgan
tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi (foizda)**

11 588

**mas'uliyati cheklangan
jamiyat**

61,2

4 041

xususiy korxonalar

21,3

3 207

oilaviy korxonalar

16,9

17

aksiyadorlik jamiyat

0,1

97


boshqalar

0,5

(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Navoiy sh.	506
Karmana t.	257
Qiziltepa t.	237
Xatirchi t.	177
Navbahor t.	172
Konimex t.	165

Zarafshon sh.	114
Nurota t.	100
Uchquduq t.	99
Tomdi t.	46
G'ozg'on sh.	11

(2024- yil 1-noyabr holatiga)


2024- yil 1- noyabr holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 11 588 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,5 foiz, sanoat – 13,4 foiz, qurilish – 8,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 14,5 foiz.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)


Navoiy sh.	3 086	Uchquduq t.	614
Qiziltepa t.	2 004	Zarafshon sh.	601
Karmana t.	1 768	Konimex t.	535
Navbahor t.	985	Tomdi t.	266
Xatirchi t.	900	G'ozg'on sh.	99
Nurota t.	730		

(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)


Konimex t.	82
Navbahor t.	63
G‘ozg‘on sh.	56
Tomdi t.	44
Zarafshon sh.	43
Xatirchi t.	42

Navoiy sh.	36
Karmana t.	15
Qiziltepa t.	13
Nurota t.	6

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

2024- yil 1- noyabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Xatirchi tumanida – 728 ta, Navoiy shahrida – 615 ta va Zarafshon shahrida – 516 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 1 948 ta, sanoat – 623 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 326 ta va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 307 ta.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Xatirchi t.	728
Navoiy sh.	615
Zarafshon sh.	516
Navbahor t.	468
Karmana t.	392
Qiziltepa t.	306

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko’rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo’lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Navoiy sh.	78
Karmana t.	76
Navbahor t.	40
Qiziltepa t.	37
Xatirchi t.	37
Nurota t.	15

Zarafshon sh.	12
Konimex t.	11
G’ozg’on sh.	7
Uchquduq t.	7
Tomdi t.	1

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- noyabr holatiga ko'ra 3 207 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 50,0 foiz, sanoat – 19,1 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 11,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,2 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Karmana tumanida – 22,9 foiz, Navoiy shahrida – 18,8 foiz, Navbahor tumanida – 15,5 foiz va Xatirchi tumanida – 14,8 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni*(birlikda)*

2024

3 207

3 496

2023

2022

4 152

3 996

2021

2020

3 654

Hududlar kesimida soni *(birlikda)*

Karmana t.

736

Navoiy sh.

603

Navbahor t.

496

Xatirchi t.

475

Qiziltepa t.

287

Nurota t.

226

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni*(birlikda)*

262



612



36

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish



1 604



26



378

Savdo

Tashish va saqlash

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



21



47



221

Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

Boshqa turlar

Konimex t.

142

Zarafshon sh.

126

G'ozg'on sh.

45

Uchquduq t.

37

Tomdi t.

34

(2024-yil 1-noyabr holatiga)


O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismalaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Qiziltepa tumani (27,5 foiz), Xatirchi tumani (23,9 foiz) va Navbahor tumani (13,2 foiz) ga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Qiziltepa t.	888
Xatirchi t.	771
Navbahor t.	427
Nurota t.	399
Karmana t.	267
Tomdi t.	202
Konimex t.	175
Uchquduq t.	86
Navoiy sh.	5
G'ozg'on sh.	5
Zarafshon sh.	1

Yillar kesimida soni (birlikda)



Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik
va bu sohalarda
xizmat ko'rsatish



3 177




Baliq ovlash
va akvakultura

48



5



5



1

O'rmonchilik
va yog'och tayyorlash

**Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona
va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**
(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'limalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rshimiz mumkin.

2024- yil yanvar-oktabr oylarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'sish sur'ati 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda 183,3 foizni tashkil etdi.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Navoiy sh.	31
Konimex t.	7
Karmana t.	5
Xatirchi t.	3
Nurota t.	3

Navbahor t.	2
Zarafshon sh.	2
Uchquduq t.	1
G'ozg'on sh.	1

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 242 ta korxonalardan 96 tasi qo'shma korxonalar va 146 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Navoiy sh.	90
Karmana t.	57
Konimex t.	21
Xatirchi t.	15
Zarafshon sh.	12
Nurota t.	12

Qiziltepa t.	9
Navbahor t.	9
G'ozg'on sh.	7
Tomdi t.	6
Uchquduq t.	4

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Yetakchi o'rinni 66 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 27,3 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 15,3 foiz), Turkiya (ulushi 8,7 foiz), Eron Islom (7,0 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 6,6 foiz) va Qozog'iston (ulushi 3,7 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.


(2024- yil 1- noyabr holatiga, birlikda)



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalg qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddallashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida chet el investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Navoiy shahriga 37,2 foiz, Karmana tumaniga – 23,6 foiz va Konimex tumaniga – 8,7 foiz to'g'ri keladi.


(2024- yil 1- noyabr holatiga, birlikda)



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

(2024- yil 1- noyabr holatiga, birlikda)



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- avgustdagি** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2024- yil 1- noyabr** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

Mobil versiyasi

Korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

ZARURIY kodini kiritish

Aparat xalqaro tafsiri, xalqaro bosing:
ZARURIY kodini kiritish

Rasmiy kodini kiritish

Deklaratsiya

C) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Statistika agentligi
2020 yil



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida,
so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 79 223-62-47

PRESS-RELIZ

